

Date: 25thJanuary-2025

ESHQOBIL SHUKURNING “BAHOUDDIN NAQSHBAND” DOSTONI HAQIDA



Otaboyeva Muhayyo

Urganch davlat universiteti

Magistratura 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Maqolada Eshqobil Shukurning islom olamidagi Naqshbandiya tariqati asoschisi va rahnamosi Xo‘ja Bahouddin Naqshband hayotiga bag’ishlangan “Bahouddin Naqshband” dostoni haqida so‘z boradi. Dostonda buyuk allomaning tug’ilishi, butun hayoti yo‘li ilohiy kuch-qudrat bilan bog’liq ekanligi yozuvchi tomonidan go‘zal badiiy ifodalar, she’riy misralar orqali olib berilgan.

Kalit so‘zlar: doston, tasavvuf, ta’limot, nafs, ko ‘ngil, poklanish, zikr.

Аннотация: В статье рассматривается эпическая поэма Эшкабиля Шукура «Бахоуддин Накшбанд», посвященная жизни Ходжи Бахауддина Накшбанды, основателя и лидера ордена Накшбандия в исламском мире. В эпосе автор посредством прекрасных художественных выражений и поэтических строк показывает, что рождение великого ученого и весь его жизненный путь связаны с божественной силой.

Ключевые слова: эпос, мистицизм, учение, похоть, душа, очищение, воспоминание.

Abstract: The article discusses Eshqobil Shukur's epic poem "Bahouddin Naqshband", dedicated to the life of Khoja Bahauddin Naqshband, the founder and leader of the Naqshbandi order in the Islamic world. In the epic, the author reveals through beautiful artistic expressions and poetic lines that the birth of the great scholar and his entire life path are connected with divine power.

Keywords: epic, Sufism, doctrine, desire, soul, purification, remembrance.

Doston adabiyotimizdagi keng qamrovli liro-epik janr hisoblanib, “qissa, hikoya, sarguzasht” degan ma’nolarni anglatadi. Unda hayot hodisalari keng qamrovda tasvirlanadi. Doston namunalari xalq og’zaki ijodida ham, yozma adabiyotda ham uchraydi. Biror shaxs, o‘rin-joy yoki muayyan voqe-a-hodisa haqidagi axborotni xoh she’riy, xoh nasriy, yoki ikkala yo ‘l orqali ham kitobxonga yetkazib berishga xizmat qiladi. Dostonlar og’zaki va yozma tarzda bo’ladi. Yozma dostonlar, asosan she’riy usulda yozilib, nasriy qismi voqealarni bir-biriga bog’lashda, qahramonlar xarakterini olib berishda muhim o‘rin tutadi.

O‘zbek dostonchiligi asrlar mobaynida shakllanib, sayqallanib kelmoqda. Adabiyotimizning ko‘plab ijodkorlari o‘zlarining go‘zal va beakror asarlari bilan kitobxonlarni maftun etib kelishmoqda. Bugungi kundagi dostonlarda inson ruhiy olami, ichki kechinmalari, qalbida kechayotgan ruhiy tug’yonlar asosiy navzular sifatida tasvirlanmoqda. Xususan, XXI asr o‘zbek adabiyotining ko ‘zga ko‘ringan vakillaridan biri Eshqobil Shukur she’riyati, shoirlik salohiyati, dostonchilik mahorati, umuman olganda, butun ijodi - asarlari kitobxonlar diqqat-e’tiborini o ‘ziga jalb qilmoqda. Ijodkor o‘z dostoni qahramonlariga xos xususiyatlarni, ularning ruhiy olamidagi o‘zgarishlarni

Date: 25thJanuary-2025

juda chiroyli va ma'noli she'riy ifodalar orqali ochib berishga harakat qilgan. Bu borada uning islom olamidagi tariqat peshvolaridan biri Hazrati Bahouddin Naqshbandga bag'ishlangan "Naqshband" nomli dostoni ahamiyatga molik.

Bahuddin Naqshband - islomdagi mashhur naqshbandiya tariqati asoschisi va rahnamosi. U 1318-yil Buxoro yaqinidagi Qasri Hinduvon qishlog'ida tug'ilgan. Allomaning ajdodlari mashhur xojalar, sayyidlar bo'lib, ota tarafdan Hazrat Aliga, ona tarafdan hazrat Abu Bakr Siddiqqa borib taqaladi. Asl ismi Muhammad bo'lgan, xojalar avlodidan bo'lgani sababli uning nomi oldiga xoja so'zini ishlatish odat bo'lgan. Naqshband nomi esa allomaning kasbi bilan bog'liq. Yoshligida otasi bilan birga kimxobga naqsh solish hunari bilan shug'ullangan. O'sha davrda matolarga naqsh ishlagan, naqsh solingan ko'yaklar yoki naqshli gilamlar to'qigan kasb egalari naqshband deyilgan. Bahouddin" so'zi "dinning nuri" degan ma'noni anglatadi. Bu Xoja Naqshbandga keyinchalik berilgan faxrli unvon. Yoshligidan ziyrak va zukko bo'lgan Muhammad 7 yoshida Qur'oni Karimni to'liq yod olgan. Mutasavvuf olimning islom dini, so'fiylik ta'limotlariga oid 10 dan ortiq asarlari mavjud. Xalq orasida Bahouddin, Bahouddinjon, Xoja Bahouddin, Bahouddin Balogardon, Balogardon, Xo'jayi Buzruk, Shohi Naqshband nomlari bilan mashhur bo'lgan.³

Eshqobil Shukurning bu dostoni she'riy yo'lida yozilgan bo'lib, asar voqealari Xo'ja Bahouddin hazratlarining tug'ilishi oldingi ayrim mo'jizalarni tasvirlash bilan boshlanadi. Bu bilan yozuvchi qanday buyuk zot dunyoga kelayotgani haqidagi xabarni kitobxonga yetkazishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yan edi. Ijodkor dostonda buyuk allomaning tug'ilishida ham ilohiylikka dahldorlik bor ekanligini o'quvchiga uqtirmoqchi bo'lgan.

Buyuk siymolarning tug'ilishida ham ilohiy bir qudrat namoyon bo'ladi. Yer-u osmon, parranda-yu darrandalar, jonivorlar-u jonsiz narsalararo bir tug'yon jo 'sh urib, daryo-u dengizlar mavjlanadi. Jumladan, Qasri Hinduvon bo'ylab o'tib ketayotgan ustoz Baboyi Samosiy hazratlarining yo'llarida turli mo'jizalar namoyon bo'lgan. Mana shu kun ulug' alloma Bahouddin dunyoga kelgan kun hisoblangan. Shu ulug' kunda gujum daraxtlari kaftlarini Rahmat yomg'iriga keng ochishi, muazzinlar xalqni natojga chaqirishi, hur-parilar o'zlarining chiroyli ovozlari bilan hurriyat kuyini baralla chalishlari – barcha-barchasi buyuk siyomoning dunyoga kelayotganiga ishoralar edi.

Qasri Hinduvonda...

G'uj-g'uj gujumlar...

Hayrona ochilgan kaftlari uzra

Yog'du yomg'irlari yog'ilgan kuni...

Najotga chorlagan muazzinlarning

Hurlar dovushiday hur ovozlari

Hurriyat kuyiday to'kilgan kuni.

Bir karvon o'tardi Hinduvon bo'ylab⁴

³ G. Navro'zova. "Hazrat Bahouddin Naqshbandning hayoti va tasavvufiy qarashlari" maqola. – "Buxoro mayjlari" jurnali. 2008. 4-bet.

⁴ E. Shukur. "Naqshband" dostoni. Hamal ayvoni to'plamidan -Toshkent: "Sharq" nashriyoti, 2003.229-bet.

Date: 25thJanuary-2025

Bir zumda Mag'ribdan Mashriqqa borib kela olgan, egnida oddiy jandapo'sh bo'lsa ham qalban Allohga yaqin, ilohiy iste'dodga ega bo 'lган ustoz Boboyi Samosiy bunday ishoratlarni tezda fahmlaydi. Tug'ilajak farzandni zulmatdagi bandalarni yorug'lik – nurga eltguvchi, olam ahliga ma'rifat ulashuvchi buyuk avliyo bo'lib yetishi haqidagi bashoratini quyidagi baytlar orqali bilishimiz mumkin:

Ummatlar diliiga umidvor boqqan,
Zulmatlar qa'rida quyoshlar yoqqan.
Olamlar Sarvari Muhammad haqqi,
Haqiqat haqqi pir bashorat etdi.

Manglayida oy porlagan uch kunlik go'dak Muhammadni ustoz Boboyi Samosiyaga olib kelishadi. Bu nurga belangan chaqaloqni Bobo ko'rishi bilanoq, butun vujudi o'tanadi, uni jon-u dili bilan farzandlikka qabul qiladi. Xo'ja Bahouddinning ustozи Samosiy bilan uchrashuvi ana shunday bo'lган.

Alloh nazari tushgan buyuk avliyo bolaligidan ustozidan g'ayb ilmlarni o'rgangan va nafasi o'tkir, qat'iyatli yigit bo'lib o'sgan. Bu hawida shunday naql qilingan:

Xo'ja Bahouddinning onalarini taajjublantirgan bir bo'lган voqeani aytib beribdi: "Farzandim Bahouddin to'rt yoshli paytida: " Mana bu sigil peshonasi qashqa tug'adi" dedi. Taqdirdan bo'lib uch-to'rt kundan keyin o'sha aytilgan sifatdagi buzoq tug'ildi. Hamma hayratdan yoqa ushlab: "Hazrat Xoja Muhammad Boboning muborak nafaslarining asari zohir bo'ldi" , - deganlar.

Ustozidan barcha: diniy, dunyoviy, g'ayb ilmlarini o'rgangan bo'lg'usi daho olam mohiyati, hayotda yashashdan asl maqsad Alloh roziliga erishish ekanligini anglaydi.

Bola dengiz ko'rib, dengiz bo'ladi,
Bola osmon ko'rib, osmon bo'ladi.
"Bolaning ichida yashaydi daho",
Yashar yaratganning xush soyasida,
Olam mohiyatday yastanib yotar,
Dahoning g'aroyib boshpanasida...

Asar davomida Hazrat darajasiga erishgan Bahouddin bir kuni Buxoro yaqinidagi ko'hna mozoristonni ziyorat qilgani kelganida ajib bir mo'jizaga guvoh bo'ladi. Mozorda ikkita suvoriyga duch keladi, xuddi Iso alayhissalomni izdoshlari - xavoriylar kutib olganiday, ular ham Bahouddin hazratlarini peshvoz chiqib qarshi oladilar. Suvoriylar ustozni kuzatib qo'yib ko'zdan g'oyib bo'lishadi. Keyingi ajoyib mo'jizali holatni shoir quyida tasvirlagan:

Bo'linib ketganday surat va siyrat,
Nogahon yorildi Qibla devori.
Shunda paydo bo'ldi havoda suzib,
Yashil harir bilan to'silgan bir taxt.
Hazratning ko'zlari ketdilar kezib:
Taxtning tegrasida pirlar bo'l mish taxt.

Islom dini peshvolari, mashhur avliyo-yu shayxlar Hazrat Bahouddinga o'z ta'limotini - tariqat yo'lini boshlab, tasavvuf olamida yangi bir ta'limotga rahnamolik qilishi

Date: 25thJanuary-2025

lozimligiga ishora berishadi. Bu pirlar taxti tegrasida Hazrat G'ijduvoniy - Xojayi Jahon misoli oy bo'lib balqardi, barcha avliyolarga yo'l ko'rsatardi:

Hazratga dedilar Xojayi Jahon:

Senga mozor uzra ko'rsatildi sir,
Seni kutmakdadir pilik, chirog'don,
Suluk piligiga harakat keltir.

Eng ulug' jihod – insonning nafsi, xohish-istiklariga qarshi jihodidir. Nafsnинг orzulari ko‘p va kuchlidir.⁵ Nafsni poklash har bir mo'min va mo'mina uchun juda muhim amallardan. Eng avvalo, poklanishni inson ruhidan, uning dilidan boshlash lozim. Chunki har bir insonning ko‘nglida Allohning Ka'basi joylashgan. She’riyat mullining sultonini Mir Alisher Navoiy ijodida ham insonning ko ‘ngli Allohning Yerdagi uyi – Ka’batullohga qiyoslangan:

Kimki bir ko ‘ngli buzug’ning xotirin shod aylagay,
Oncha borkim, Ka’ba vayron bo ‘lsa, obod aylagay.⁶

Isloh qilishni ko ‘ngildan boshlash degani – tilida va dilida Allohni zikr qilish. Dilda Allohga yaqinlikni his qilib, amalida insonlarga muruvvat ko ‘rsatish, olivjanoblik ila, hech qanday tamasiz el xizmatiga tayyor bo ‘lish haqiqiy jasorat sohiblarigagina xosdir. Naqshbandiylik tariqatining shoiri ham mana shu edi. “Dil ba yor-u, dast ba kor” – “Diling Alloh zikrida bo ‘lsin, qo ‘ling mehnatda”. Dostonda Xoja Naqshband ustozni Bobo Samosiy o ‘zidagi barcha ilmlarni o‘gliday bo ‘lib qolgan shogirdi Bahouddinga o ‘rgatganidan so‘ng uni Sayyid Mir Kulol huzuriga jo‘natishi tasvirlangan. Bu xuddi Mulla Bozoroxun shogirdi Boborahim Mashrabni Ofoqxo‘ja oldiga yuborganiday. Ustozlaridan saboq olgan Bahouddin Naqshband o‘z izdoshlariga ham ma’naviy meros qoldirgan.

Eshqobil Shukur ushbu dostonini nihoyalar ekan, Xo‘ja Bahouddin hazratlarining buyuk mutasavvuf bo‘lib yetishganiga va o‘ziga ko ‘plab insonlarni ergashtirganiga ishoralar berib o’tadi. Bunga qo ‘shimcha tarzda ijodkor bu dostonni yozib barobarida o ‘zining tasavvuf olamida haqidagi bilimlari oshgani haqida ta’kidlagan.

Xulosa qilib aytganda, ijodining ko‘p qismini she’rlardan iborat bo ‘lgan shoir Eshqobil Shukur liro-epik janr hisoblangan dostonchilikda ham barakali ijod qilgan. Uning tahlilga tortgan “Bahouddin Naqshband” dostonida mashhur valiy zot Xoja Bahouddin hazratlariga xos ma’naviy sifatlar chiroyli tarzda tasvirlangan. Bu dostonda Naqshbandiya tariqati asoschisidagi go ‘zal fazilatlar badiiy tasvirlarda ifodalangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. G. Navro‘zova. “Hazrat Bahouddin Naqshbandning hayoti va tasavvufiy qarashlari” maqola. – “Buxoro mavjhlari” jurnali. 2008.
2. E. Shukur. Hamal ayvoni. She’rlar va dostonlar – Toshkent: “Sharq” nashriyoti, 2003
3. E. Shukur. “Naqshband” dostoni. Hamal ayvoni to ‘plamidan -Toshkent: “Sharq” nashriyoti, 2003
4. Mahmud As’ad jo ‘shon. “Islom va axloq” kitobi –Toshkent. “Qaqnus” nashriyoti.

⁵ Mahmud As’ad jo ‘shon. “Islom va axloq” kitobi –Toshkent. “Qaqnus” nashriyoti

⁶ E. Ochilov. Alisher Navoiy. Hikmatlar – Toshkent. 2006

Date: 25thJanuary-2025

5. E. Ochilov. Alisher Navoiy. Hikmatlar – Toshkent. 2006.

